



Saydivaliyeva Xurshida Xodjiakbarovna,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti
bo‘limi boshlig‘i, yuridik fanlar
bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim



Tleuova Gulmira Ospanovna,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot
instituti kichik ilmiy xodimi

MEHNAT JAMOALARI VA TA'LIM MUASSASALARIDA XOTIN-QIZLARGA QARSHI QARATILGAN TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKNING OLDINI OLISH (sotsiologik tadqiqot natijalari)

Annotatsiya. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash hamda oila institutini har tomonlama mustahkamlash bo‘yicha salmoqli ishlar olib borilayotganiga qaramay, jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan gender kamsitish holatlari uchramoqda. Ushbu holatlar oilada, ish joyida, ko‘chada, ta‘lim tashkilotlarida kuzatilmoqda. Qolaversa, zo‘ravonlik holatini tavsiflovchi statistik ma‘lumotlarni to‘plash va yaxlit tarzda tahlil qilish imkoniyatlari yetarli darajada emasligi, turli yoshdagi xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarini erta aniqlash va oldini olish tizimini boshqarishda, huquqiy qo‘llab-quvvatlashda bu sohada profilaktika tizimi subyektlarining o‘zaro hamkorlik qoidalari va texnologiyalarida kamchiliklar mavjudligi, mazkur muammoga kompleks tarzda yondashuvning samaradorligiga oid muammolar o‘z yechimini kutmoqda. Ular orasida ish joyi

va ta'lim muassasasida sodir etiladigan zo'ravonlik holatlari kam tadqiq etilgan bo'lib, bu borada xotin-qizlar orasida muammoni yashirish kuzatiladi. Ushbu muammo bo'yicha xotin-qizlarning fikrini o'rganish, mehnat jamoalari va ta'lim muassasalarida tazyiq va zo'ravonlik holatlarining sabablari va omillarini aniqlash maqsadida sotsiologik so'rov o'tkazildi.

Shuningdek, maqolada o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari tahlili keltiriladi va mamlakatimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar, gender kamsitish holatlari va uning turlaridan biri hisoblangan xarassment tushunchasiga atroflicha to'xtab o'tiladi hamda xotin-qizlarga qarshi qaratilgan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha taklif va tavsiyalar beriladi.

Аннотация. В последние годы в Узбекистане проведена значительная работа по обеспечению прав и интересов женщин, укреплению института семьи во всех аспектах. Несмотря на это, в обществе имеют место случаи гендерной дискриминации женщин. Отмечается, что эти случаи совершаются в семье, на рабочем месте, на улице, в образовательных организациях. Кроме того, недостаточны возможности для сбора и всестороннего анализа статистических данных, характеризующих состояние насилия, в управлении системой раннего выявления и предупреждения домогательств и насилия в отношении женщин разного возраста, в правовом обеспечении, в этой сфере, правила взаимодействия субъектов системы профилактики, вопросы, связанные с эффективностью комплексного подхода к данному вопросу остаются проблемами, которые ожидают своего решения. Среди них менее изучены случаи насилия, совершаемого на рабочем месте и в учебном заведении, и проблема остается скрытой среди женщин. Проведен социологический опрос с целью изучения мнения женщин по данной проблеме, определения причин и факторов домогательств и насилия в трудовых коллективах и учебных заведениях. В статье представлен анализ результатов социологического исследования. В то же время в статье акцентируется внимание на работе, проводимой в поддержку женщин в нашей стране, случаях гендерной дискриминации и понятии домогательства, которые являются одним из его видов, а также приводятся предложения и рекомендации по предотвращению притеснения и насилия в отношении женщин.

Annotation. In recent years in Uzbekistan significant work has been carried out to ensure the rights and interests of women, to strengthen the institution of the family in all aspects. But despite this, there are cases of gender discrimination against women in the society. It is observed that these cases are committed in the family, at the workplace, on the street, and in educational institutions. In addition, there are insufficient opportunities to collect and comprehensively analyze the statistical data that describes the state of violence, the management of the system for early detection and prevention of harassment and violence against women of different ages, legal support, in this field, the rules of interaction of the subjects of the prevention system and the presence of shortcomings in the technologies, issues related to the effectiveness of a comprehensive approach to this issues are the problems that await the solution. Among them, cases of violence committed in the workplace and educational institution are less researched, and in this regard, the problem is hidden even among women. A sociological survey was conducted in order to study the opinion of women on this problem, to determine the causes and factors of harassment and violence in work teams and educational institutions. The article provides an analysis of the results of the sociological research. At the same time, the article focuses on the work carried out to support women in our country, to prevent the cases of gender discrimination and the concept of harassment, which is one of its types, and offers suggestions and recommendations for preventing oppression and violence against women.

Tayanch soʻzlar: *gender, kamsitish, tazyiq, zoʻravonlik, mehnat jamoasi, ish joyi, taʼlim muassasasi, qonunchilik, rehabilitatsiya markazlari, xarassment, qonuniy huquq va manfaatlar, ayollar, himoya orderi.*

Ключевые слова: *гендер, дискриминация, домогательства, насилие, трудовое сообщество, рабочее место, учебное заведение, законодательство, реабилитационные центры, домогательства, законные права и интересы, женщины, охранный ордер.*

Keywords: *gender, discrimination, harassment, violence, work community, workplace, educational institution, legislation, rehabilitation centers, harassment, legal rights and interests, women, protective order.*

Kirish. BMT Bosh Assambleyasining Barqaror rivojlanish boʻyicha oʻtkazilgan sammitida 70-son rezolyutsiyasi 2015-yilning sentyabrida qabul qilinib, 17 ta maqsadga erishish boʻyicha 169 ta maqsadli vazifa tasdiqlangan. Bevosita barqaror rivojlanish sohasidagi 5-maqsadi gender tenglikni taʼminlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga erishishdan iborat. Dunyo miqyosida 25-noyabr “Xalqaro xotin-qizlarga nisbatan zoʻravonlikka barham berish uchun kurashish kuni” sifatida eʼtirof etiladi. Hozirgi kunga kelib, jahon boʻyicha yiliga 15 yoshdan 49 yoshgacha boʻlgan har beshinchi ayol zoʻravonlik holati boʻyicha tegishli tashkilotlarga ariza bilan murojaat qiladi.

Mamlakatimizda xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tazyiq va zoʻravonlikdan ishonchli himoya qilishning institutsional hamda huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirishga, ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, mamlakatimizda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonun asosida gender tenglikni taʼminlash masalasi davlat siyosati darajasiga koʻtarilib, parlament yuqori palatasida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qoʻmitasi tomonidan Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari boʻyicha respublika komissiyasining Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni taʼminlash masalalari boʻyicha maslahat-kengashlari hamda Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi tashkil etildi.

Maqsad va uni asoslash. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi Qarori bilan “2030-yilga qadar Oʻzbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi” tasdiqlandi. Mazkur strategiyada jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, taʼlim, ilm-fan, sport munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlarining tengligi borasidagi bugungi holat va mavjud muammolar belgilab oʻtilgan. Bundan tashqari, strategiyani amalga oshirishning ustuvor yoʻnalishlaridan biri etib davlat xizmati sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni taʼminlash

ham belgilangan. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar xotin-qizlarni muhofaza qilish, ular orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish, ularning qadr-qimmati, shon-shavkati, jumladan, mavqeyi, hayoti va jonini asrab-avaylashga yo'naltirilgan.

Biroq, shu bilan birga, bugungi kunda huquqni qo'llash amaliyotida xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish bilan bog'liq masalalarda bir qator muammolar mavjud. Tahlillarga ko'ra, 2022-yilda Respublikada ajrimlar soni 48 ming 734 tani tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 23,8 foizga oshgan. Shu bilan bir qatorda, 49 ming 774 nafar xotin-qiz tazyiq va zo'ravonlikka uchragan. Qolaversa, xotin-qizlar va bolalarning huquqlariga daxl qiluvchi jinoiy qilmishlarga nisbatan jazo choralari belgilanmagani, xotin-qizlarni shilqimlik va zo'ravonlikdan himoya qilishning huquqiy kafolatlari, shuningdek, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxsga davlat himoyasini taqdim etuvchi orderning amal qilish muddati (o'ttiz kun) ta'minlanmayotgani xotin-qizlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlari yetarli darajada himoya qilish imkonini bermayotgan edi. Shu nuqtayi nazardan ham joriy yilning 11-aprel kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-829-sonli Qonun'ning qabul qilinishi ham bu borada qilinayotgan yana bir muhim qadam bo'ldi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Xotin-qizlarga nisbatan sodir etilayotgan tazyiq va zo'ravonlikning aksariyati oilada sodir etilayotganligi bilan bir qatorda, oiladan tashqarida, ya'ni ish joyi, ta'lim muassasasi va jamoat joylarida ham uchraganligi ayanchli holdir. Xususan, joriy yilning o'tgan 5 oyi mobaynida tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan 14586 nafar (2022-yilning shu davrida 22816 nafar) xotin-qizga himoya orderi berildi. Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonliklar joylar kesimida tahlil qilinganda, oilada – 12370 ta, ko'chada – 1505 ta, jamoat joyida – 446 ta, ish joyida – 131 ta, shuningdek, ta'lim muassasida – 136 ta holat sodir etilgani aniqlangan². Shu jihatdan olib qaraganda, mazkur holatlarni har tomonlama tahlil qilish va tegishli tartibda taklif va tavsiyalar asosida profilaktik ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Nazariyada mazkur ko'rinishdagi tazyiq va zo'ravonlik – xarassment, deb atalib, bu borada ko'plab tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda³.

Xarassment bu inglizcha atama bo'lib, ta'qib qilish, shaxsiy chegaralarni buzish va bo'ysundirishni anglatadi. Masalan, behayo so'zlar aytish, keraksiz teginishlar va noaniq maqtovlar bilan tegajaklik qilish kabilar. Ushbu harakatlar ishda ham, maktabda ham, ko'chada ham sodir bo'lishi mumkin.

Xarassment bu inglizcha atama bo'lib, ta'qib qilish, shaxsiy chegaralarni buzish va bo'ysundirishni anglatadi. Masalan, behayo so'zlar aytish, keraksiz teginishlar va noaniq maqtovlar bilan tegajaklik qilish kabilar. Ushbu harakatlar ishda ham, maktabda ham, ko'chada ham sodir bo'lishi mumkin.

¹ Ўзбекистон Республикасининг “Хотин-қизлар ва болалар ҳуқуқлари, эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилиш тизими янада такомиллаштирилиши муносабати билан ўзбекистон республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги Қонуни ЎРҚ-829. //https://lex.uz/ru/docs/6430272

² Оила ва хотин-қизлар қўмитаси маълумотлари асосида.

³ <https://cyberleninka.ru/article/n/harassment-ugolovno-pravovoe-ponyatie>.

***Lloyd's Register
fondi hamda
Gallup xalqaro
mehnat tashkiloti
tomonidan 121 ta
mamlakatda 74
000 nafardan ortiq
ishchi o'rtasida
o'tkazilgan
so'rovga ko'ra,
zo'ravonlik
va ta'qibning
jismoniy,
psixologik va
jinsiy turlari keng
tarqalganligi
haqida xabar
berilgan.***

Yangi global tadqiqotlarga ko'ra, dunyo bo'ylab ishlaydigan 23%, ya'ni har beshinchi insondan ko'prog'i hayoti davomida ish joyida zo'ravonlik yoki ta'qibning bir yoki bir nechta shakllarini boshdan kechirgan. Lloyd's Register fondi hamda Gallup Xalqaro Mehnat Tashkiloti tomonidan 121 ta mamlakatda 74 000 nafardan ortiq ishchi o'rtasida o'tkazilgan so'rovga ko'ra, zo'ravonlik va ta'qibning jismoniy, psixologik va jinsiy turlari keng tarqalganligi haqida xabar berilgan⁴.

Mamlakatimizda ham bu kabi holatlarni o'rganish maqsadida "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan mehnat jamoalari, ta'lim muassasalari hamda jamoat joylarida tazyiq va zo'ravonlik holatlari o'rganilib, sotsiologik so'rovlar o'tkazilgan. Quyida ushbu tadqiqot natijalari keltirilgan:

So'rov 2023-yilning mart oyida 18 va undan katta yoshdagi 524 nafar respondent o'rtasida o'tkazilgan bo'lib, ularning barchasi xotin-qizlardan tarkib topgan. So'rov ishtirokchilarining yashash hududiga ko'ra 61,7 foizini shaharliklar, 38,3 foizini esa qishloqliklar tashkil etgan. So'rovga Toshkent (21,4%), Surxondaryo (13,4%), Farg'ona (16,8%) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi (48,5%) fuqarolari kiritilgan.

Respondentlarning ma'lumot darajasi bo'yicha tarkibiga ko'ra, 64 foizi oliy, 23 foizi o'rta maxsus va 13 foizi o'rta ma'lumotga ega.

Turli sohalarida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlarning kasbiy faoliyati bo'yicha: tibbiyot sohasida – 4,7%, huquqni muhofaza qilish sohasida – 2,7%, moliya va bank sohasida – 0,8%, ta'lim sohasida – 51,8%, tadbirkorlik sohasida – 1,2%, nodavlat tashkilot sohasida – 5,1%, davlat boshqaruvi sohasida – 2,7%, madaniyat va san'at sohasida – 3,1%, harbiy tashkilot sohasida – 1,2% va boshqa sohalarida – 26,7%ni tashkil etishi aniqlangan.

Tadqiqot ikki xil usulda: Google Docs dasturi asosida onlayn (internet) so'rov hamda joylarda anketali (so'rov varaqasi) so'rov o'tkazish orqali amalga oshirildi. Ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil etishda matematik statistika va turli statistik tartibdagi metodlardan foydalanildi. Shuningdek, onlayn shaklda olingan ma'lumotlar anketa shaklida o'tkazilgan tadqiqot natijalari bilan qiyoslanib, tahlil natijalari deyarli bir-biriga monand ekanligi aniqlandi. Ma'lumotlarning yakuniy natijalarining statistik tahlili SPSS dasturidan foydalanilgan holda amalga oshirildi.


So'rov davomida aniqlandiki, deyarli har uchinchi respondent (29,9%) "zo'ravonlik" deganda haqoratlash, tahdid qilish, inson sha'ni va qadr-qimmatini poymol qilish degan javob variantini belgilagan. 26,3% ishtirokchi turli darajadagi tan jarohatlar yetkazish deb hisoblasa, 26,0% jinsiy aloqa qilishga majburlash degan javobni keltirishgan.

Shuningdek, 8,2% respondent tilga olinmaydigan so'zlar bilan so'kish, 4,4% ishlashini ta'qiqlash va ruxsat bermaslikni, 0,1% esa oliy ta'lim olishni ta'qiqlashni tushunishini qayd etgan. Qolaversa, ularning 2 foizi savolga javob berishga qiynalishini ma'lum qilgan bo'lsa, qolgan 1,5% respondent boshqa turli fikrlarni bildirgan.

⁴ <https://the-steppe.com/razvitie/pochemu-ketkolling-eto-ne-kompliment>

Mazkur savolga berilgan javoblar hududlar kesimida ko'rib chiqilganda sezilarli farq aniqlanmadi.

Faqatgina Farg'ona viloyatida istiqomat qiluvchi respondentlarning ko'pchiligi (33,6%) zo'ravonlikni, asosan, turli darajadagi tan jarohatlar yetkazish deb tushunishini ma'lum qilishgan.



I-rasm. Sizningcha, “zo'ravonlik” nima?
(so'ralganlar soni % larda)

Shuningdek, respondentlarga “Tashkilot va ta'lim muassasalarida xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlari to'g'risida eshitganmisiz?” degan mazmunda savol berilganida, ishtirokchilarning ko'pchiligi (60,3%) “yo'q” deb javob bergan bo'lsa, qolgan respondentlar (39,7%) esa “ha” degan javobni keltirishgan.

Mazkur savolga Farg'ona viloyatida istiqomat qiluvchi respondentlarning yarmidan ko'pi (56,8%) esa “ha” degan javobni bildirishgan.

Ushbu savol yuzasidan qolgan hududlar bo'yicha berilgan javoblar tahlil qilinganida sezilarli farq aniqlanmadi.


Tadqiqot davomida respondentlarning ish va o'qish joylarida ayollarga nisbatan zo'ravonlik yoki tazyiqning qaysi ko'rinishlari ko'proq uchrashi yuzasidan fikrlari o'rganilganida, har uchinchi (33,2%) respondent ish va o'qish joylarida ayollarga nisbatan zo'ravonlik yoki tazyiqni baqirish ko'rinishida ko'proq uchrashini ma'lum qilgan.

Har beshinchi (20,6%) respondent esa haqorat qilishga ko'p duch kelishganini qayd etgan. Qolgan respondentlarning 15,6% ustidan kulish va tahqirlash, 14,5% so'kish, 11,1% esa jinsiy majburlash degan javob variantini belgilagan. 5% so'rov ishtirokchisi boshqa fikrlar bildirgan.

Ushbu savol yuzasidan qolgan hududlar bo'yicha berilgan javoblarni tahlil qilinganida sezilarli farq aniqlanmadi. Biroq Farg'ona viloyatida istiqomat qiluvchi har beshinchi (20%) respondent zo'ravonlik ko'proq ustidan kulish va tahqirlash shaklida, Toshkent viloyatida istiqomat qiluvchi har beshinchi (21%) respondent esa ish va o'qish joylarida ayollarga nisbatan zo'ravonlik yoki tazyiq sifatida haqorat qilish ko'proq uchrashini ma'lum qilgan.

Tadqiqot davomida respondentlarning ish va o'qish joylarida ayollarga nisbatan zo'ravonlik yoki tazyiqning qaysi ko'rinishlari ko'proq uchrashi yuzasidan fikrlari o'rganilganida, har uchinchi (33,2%) respondent ish va o'qish joylarida ayollarga nisbatan zo'ravonlik yoki tazyiqni baqirish ko'rinishida ko'proq uchrashini ma'lum qilgan.

Deyarli har to'rtinchi (22,1%) respondent jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan hurmatning yo'qligi – tashkilot va ta'lim muassasalarida xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlari kelib chiqishining asosiy sababi va omili, deb hisoblaydi.




2-rasm. Sizningcha, ish va o'qish joylarida ayollarga nisbatan zo'ravonlik yoki tazyiqning qaysi ko'rinishlari ko'proq uchraydi? (so'ralganlar soni % larda)

Respondentlarga “Tashkilot va ta'lim muassasalarida xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlari kelib chiqishining asosiy sabab va omillari nimada?” degan mazmunda savol berildi.

Deyarli har to'rtinchi (22,1%) respondent jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan hurmatning yo'qligi – tashkilot va ta'lim muassasalarida xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlari kelib chiqishining asosiy sababi va omili, deb hisoblaydi.

Qolgan so'rov ishtirokchilarining 18,2 foizi xotin-qizlarning kuchsiz va nozik jins vakili ekanligini sabab deb hisoblasa, 17,4 foizi xotin-qizlarning g'iybatga moyilligi, 12,2 foizi aksariyat hollarda ayollar yuklatilgan vazifalarni bajarmasligi, 11,7 foizi rahbarlarning ayollar bilan ishlashni o'zlariga ep ko'rmasligi, 9,6 foizi tashkilotda erkak va ayol xodimlar o'rtasida munosabatlar yaxshi emasligi, 7,3 foizi xotin-qizlarning rahbarlarga ko'p gap qaytarishi va 1,6 foizi boshqa mazmundagi turli javoblarni keltirgan.

Ushbu savol yuzasidan qolgan hududlar bo'yicha berilgan javoblar tahlil qilinganida Farg'ona viloyatida istiqomat qiluvchi deyarli har to'rtinchi (23,8%) respondent xotin-qizlarning kuchsiz va nozik jins vakili ekanligini qayd etgan bo'lsa, Surxondaryo viloyatida istiqomat qiluvchi aksariyat (27,1%) respondentlar xotin-qizlarning g'iybatga moyilligi to'g'risidagi fikrlarni bildirishgan. Mazkur savol yuzasidan qolgan hududlar bo'yicha berilgan javoblarda sezilarli farq aniqlanmadi.



**3-rasm. Sizningcha, tashkilot va ta'lim muassasalarida
xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlari kelib
chiqishining asosiy sabab va omillari nimada?
(so'ralganlar soni % larda)**

Bugungi kunda jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlari sodir etilish vaqti masalasini o'rganish va tahlil qilish muhim hisoblanadi.

Bu borada tashkilot yoki ta'lim muassasasida zo'ravonlik (haqorat, so'kish, baqirish) holati qancha muddatda sodir etilishi haqida respondentlardan so'ralganida, tadqiqot ishtirokchilarning deyarli asosiy qismi (75,1%) ularga nisbatan zo'ravonlik holati umuman sodir bo'lmaganini aytgan. Ushbu javoblardan farqli o'laroq har o'ninchi (10,2%) respondent har oyda kamida bir marotaba deb ta'kidlagan.


Shuningdek, so'rovda qatnashgan 8,2% ishtirokchi javob berishim qiyin, 2,4% respondent har kuni, 1,2 foizi bir haftada kamida bir marotaba, 2,9% respondent esa boshqa turli javoblarni bergan.

Mazkur savol bo'yicha hududlar kesimidagi berilgan javoblar tahlil qilinganida Qoraqalpog'iston Respublikasida istiqomat qiluvchi har beshinchi (20,9%) respondent tashkilot yoki ta'lim muassasasida unga nisbatan

***Tashkilot
yoki ta'lim
muassasasida
zo'ravonlik
(haqorat,
so'kish, baqirish)
holati qancha
muddatda sodir
etilishi haqida
respondentlardan
so'ralganida,
tadqiqot
ishtirokchilarning
deyarli asosiy
qismi (75,1%)
ularga nisbatan
zo'ravonlik holati
umuman sodir
bo'lmaganini
aytgan. Ushbu
javoblardan
farqli o'laroq har
o'ninchi (10,2%)
respondent har
oyda kamida bir
marotaba deb
ta'kidlagan.***

zoʻravonlik (haqorat, soʻkish, baqirish) holati bir oyda kamida bir marotaba sodir etilishini qayd etgan. Ushbu savolga qolgan hududlar boʻyicha berilgan javoblar oʻrtasidagi farq sezilarli emas.

Respondentlarga tashkilot va taʼlim muassasalarida zoʻravonlik holati sodir etilgan taqdirda nima qilishi boʻyicha savol berilganida, ishtirokchilarning deyarli yarmi (45,7%) tashkilot yoki taʼlim muassasa rahbariyatiga murojaat qilishini maʼlum qilgan, har beshinchi respondent (19,4%) esa “102” telefoniga qoʻngʻiroq qilib, militsiya chaqirishini qayd etgan.



4-rasm. Tashkilot yoki taʼlim muassasangizda Sizga nisbatan zoʻravonlik (haqorat, soʻkish, baqirish) qay darajada sodir etiladi? (soʻralganlar soni % larda)


Hozirgi vaqtda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini baholashda fuqarolarning huquqbuzarlik holatlariga nisbatan munosabati asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Respondentlarga tashkilot va taʼlim muassasalarida zoʻravonlik holati sodir etilgan taqdirda nima qilishi boʻyicha savol berilganida, ishtirokchilarning deyarli yarmi (45,7%) tashkilot yoki taʼlim muassasa rahbariyatiga murojaat qilishini maʼlum qilgan, har beshinchi respondent (19,4%) esa “102” telefoniga qoʻngʻiroq qilib, militsiya chaqirishini qayd etgan.

Shu bilan birga, 17,8 foiz respondent diloizorga qarshi oʻzi mustaqil kurashishini, 7,3 foizi javob berishi qiyinligini, 3,2 foizi yaqin qarindoshlariga xabar qilishini, 4 foizi eʼtibor bermasdan oʻtib ketishini, 2,4 foiz respondent esa boshqa turli javoblarni keltirishgan.

Mazkur savol boʻyicha hududlar kesimidagi berilgan javoblar tahlil qilinganida Surxondaryo viloyatida istiqomat qiluvchi 28,6% soʻrov ishtirokchisi “102” telyefoniga qoʻngʻiroq qilishini maʼlum qilgan.

Ushbu savolga qolgan hududlar boʻyicha berilgan javoblar oʻrtasidagi farq sezilarli emas.



5-rasm. Sizga nisbatan tashkilot va ta'lim muassasalarida zo'ravonlik holati sodir etilsa, qanday yo'l tutasiz? (so'ralganlar soni % larda)

Olingan natijalarga ko'ra, respondentlarning deyarli katta qismi (96,3%) shaxsan o'zi ish yoki o'qish joyida jinsiy zo'ravonlik va ta'qiblarga uchramaganini bildirgan bo'lsa, ozchilik qismi (3,7%) uchraganini ma'lum qilgan.

Bundan tashqari, olingan natijalarga ko'ra, respondentlarning deyarli katta qismi (96,3%) shaxsan o'zi ish yoki o'qish joyida jinsiy zo'ravonlik va ta'qiblarga uchramaganini bildirgan bo'lsa, ozchilik qismi (3,7%) uchraganini ma'lum qilgan.

Tadqiqot jarayonida ish va o'qish joyida ayollarga nisbatan zo'ravonlik yoki tazyiq sodir etilishiga atrofdagilar qanday munosabatda bo'lishi haqida respondentlarning fikri tahlil qilingan.

Respondentlarning ko'pchiligi (36,5%) darhol xotin-qizlarni himoya qilishga o'tishini ma'lum qilgan, deyarli har to'rtinchi (23,8%) ishtirokchi esa agarda voqeaga guvoh bo'lsa, e'tiroz bildirishi haqidagi javobni keltirgan.


Javoblardan farqli ravishda 17,6% respondent javob berishi qiyinligi, 12,7 foizi jamiyatda bu odatiy holga aylanayotgani va bu holatga e'tiroz bildirish sustligini hamda 9,4 foizi esa bunga e'tibor berishmasligini ta'kidlagan.

Mazkur savol bo'yicha hududlar kesimidagi berilgan javoblar o'rganilganida Farg'ona viloyatida istiqomat qiluvchi har uchinchi (33,3%) so'rov ishtirokchisi jamiyatda bu odatiy holga aylanmoqda va bu holatga e'tiroz bildirish sustligini ma'lum qilgan.

Ushbu savolga qolgan hududlar bo'yicha berilgan javoblar o'rtasidagi farq sezilarli emas.

Bundan tashqari, respondentlarga "ish va o'qish joyida ayollarga nisbatan zo'ravonlik yoki tazyiq sodir etgan shaxslarning odob-axloqini tashkilot jamoasi o'rtasida muhokama qilishni qanday baholaysiz?" degan savol bilan murojaat qilinganida, so'rov ishtirokchilarning aksariyati (43,9%) buni juda to'g'ri deb hisoblagan bo'lsa, ayrimlari (33,6%) to'g'ri, ammo har qanday holatga ham to'g'ri kelmasligini ma'lum qilgan.

Farg‘ona viloyatida istiqomat qiluvchi respondentlarning ko‘pchiligi (33,6%) zo‘ravonlikni, asosan, turli darajadagi tan jarohatlar yetkazish deb tushunishini ma’lum qilgan.



6-rasm. Sizningcha, ish va o‘qish joyida xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik yoki tazyiq sodir etilishiga atrofdagilar qanday munosabatda bo‘ladi? (so‘ralganlar soni % larda)

Qolgan respondentlarning 9 foizi noto‘g‘ri, 4,9 foizi butkul noto‘g‘ri va 8,6 foizi esa javob berishi qiyinligini bildirgan.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda, o‘tkazilgan so‘rov natijalari bo‘yicha quyidagi xulosaga kelindi:

1. Deyarli har uchinchi respondent (29,9%) “zo‘ravonlik” deganda, haqoratlash, tahdid qilish, sha‘ni va qadr-qimmatini kamsitish deb hisoblaydi.

Farg‘ona viloyatida istiqomat qiluvchi respondentlarning ko‘pchiligi (33,6%) zo‘ravonlikni, asosan, turli darajadagi tan jarohatlar yetkazish deb tushunishini ma’lum qilgan;

2. So‘rov ishtirokchilarining yarmidan ko‘pi (60,3%) tashkilot va ta’lim muassasalarida xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik sodir etilgani to‘g‘risidagi holatlari haqida umuman eshitmagan;

3. Har uchinchi (33,2%) respondent ish va o‘qish joylarida ayollarga nisbatan zo‘ravonlik yoki tazyiq holatlari ko‘proq baqirish ko‘rinishida uchrashini ma’lum qilgan.

Har beshinchi (20,6%) respondent esa haqoratga ko‘p duch kelganini qayd etgan.

Farg‘ona viloyatida istiqomat qiluvchi har beshinchi (20%) respondent ustidan kulish va tahqirlashni, Toshkent viloyatida istiqomat qiluvchi har

beshinchi (21%) respondent esa ish va o'qish joylarida ayollarga nisbatan zo'ravonlik, tazyiq va haqorat qilish holatlariga ko'proq uchrashini ma'lum qilgan.

4. Deyarli har to'rtinchi (22,1%) respondent tashkilotlarda xotin-qizlarga nisbatan hurmatning yo'qligi ularga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlari kelib chiqishining asosiy sababi va omili deb hisoblaydi.

Biroq Farg'ona viloyatida istiqomat qiluvchi deyarli har to'rtinchi (23,8%) respondent xotin-qizlarning kuchsiz va nozik jins vakili ekani, Surxondaryo viloyatida yashovchi aksariyat (27,1%) respondentlar esa xotin-qizlarning g'iybatga moyilligi tashkilot va ta'lim muassasalarida xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlari kelib chiqishining asosiy sababi va omili ekani qayd etilgan.

5. Tadqiqot ishtirokchilarining ko'pchiligi (75,1%) ularga nisbatan zo'ravonlik holati umuman sodir bo'lmaganini ma'lum qilganlar.

Ushbu javoblardan farqli o'laroq, har o'ninchi (10,2%) respondent bir oyda kamida bir marotaba zo'ravonlikka uchrashini ta'kidlagan.

Qoraqalpog'iston Respublikasida istiqomat qiluvchi har beshinchi (20,9%) respondent unga nisbatan bir oyda kamida bir marotaba tashkilot yoki ta'lim muassasasida zo'ravonlik (haqorat, so'kish, baqirish) holati sodir etilishni qayd etgan.

6. Tashkilot va ta'lim muassasalarida zo'ravonlik holati sodir etilsa, ishtirokchilarning deyarli yarmi (45,7%) tashkilot yoki ta'lim muassasa rahbariyatiga murojaat qilishini ma'lum qilgan, har beshinchi respondent (19,4%) esa "102" telefoniga qo'ng'iroq qilib, ichki ishlar xodimini chaqirishini qayd etgan.

Surxondaryo viloyatida istiqomat qiluvchi 28,6% so'rov ishtirokchisi esa "102" telefoniga qo'ng'iroq qilishini ma'lum qilgan.

7. Respondentlarning deyarli katta qismi (96,3%) shaxsan o'zi ish yoki o'qish joyida jinsiy zo'ravonlik va ta'qiblarga uchramaganini bildirgan bo'lsa, ozchilik qismi (3,7%) bunday holatlar ular uchun yangilik emasligini ma'lum qilgan.

8. Respondentlarning ko'pchiligi (36,5%) ish va o'qish joyida ayollarga nisbatan zo'ravonlik yoki tazyiq sodir etilsa, darhol xotin-qizlarni himoya qilishga o'tishini ma'lum qilgan, deyarli har to'rtinchi (23,8%) ishtirokchi esa agarda voqeani guvoh bo'lsa, e'tiroz bildirishi haqidagi javobni belgilangan.

Farg'ona viloyatida istiqomat qiluvchi har uchinchi (33,3%) so'rov ishtirokchisi jamiyatda bu odatiy holga aylanib ulgurgani va bu holatga e'tiroz bildirishda sustkashlikka yo'l qo'yilishini ma'lum qilgan.

9. So'rov ishtirokchilarning aksariyati (43,9%) ish va o'qish joyida ayollarga nisbatan zo'ravonlik yoki tazyiq sodir etgan shaxslarning odob-axloqini jamoa o'rtasida muhokama qilishini juda to'g'ri deb hisoblaydi. Aksariyat (30,5%) respondentlar esa (33,6%) bu to'g'ri, biroq har qanday holatda ham emasligini ma'lum qilgan.

Yakuniy qism. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, tazyiq va zo'ravonlik kabi huquqbuzarliklarga nisbatan jamiyatning murosasizlik madaniyatini

Respondentlarning deyarli katta qismi (96,3%) shaxsan o'zi ish yoki o'qish joyida jinsiy zo'ravonlik va ta'qiblarga uchramaganini bildirgan bo'lsa, ozchilik qismi (3,7%) bunday holatlar ular uchun yangilik emasligini ma'lum qilgan.

shakllantirish, xotin-qizlarning erkin mehnat sharoitlarida faoliyat olib borishi, jamoat joylarida erkin harakatlanishi hamda ta'lim muassasalarida erkin o'qishi uchun shart-sharoitlar yaratish muhim. Shuningdek, ish beruvchilarning bu boradagi mas'uliyatini oshirish, ushbu yo'nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, qonunchilikda mehnat jamoalarida tazyiq va zo'rvonlikning oldini olishga qaratilgan choralarni takomillashtirish hamda gender tengligini ta'minlashning vositasi hisoblangan genderga oid auditni kasaba uyushmalari tomonidan o'tkazilishi va ularning natijalarini keng ommaga taqdim etish kabi chora-tadbirlar muhim sanaladi. Shu nuqtayi nazardan quyidagi takliflar keltiriladi:

– tashkilot xodimlari va ish beruvchilarning ta'qib va zo'rvonlik nima ekani, uning tabiati, ko'lam va oqibatlarini to'g'risida xodimlar xabardorligini oshirish, bu bo'yicha ochiq munozaralar o'tkazib borish, axborot materiallari tarqatish, gender tengligi va ta'qiblar yuzasidan treninglar o'tkazish;

– zo'rvonlikka qarshi kurashuvchi tashkilotlar ish joylarida kamsitish va ta'qib qilishning barcha shakllariga qarshi o'z siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

– xotin-qizlar o'rtasida "raqamli savodxonlik" va "soft skills"ni targ'ib qilish va kengaytirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish, ayol kadrlar tayyorlashning tezlashtirilgan tizimini yaratish;

– hududlarda ilm-fan va ilmiy lavozimlarga ko'proq ayollarni jalb qilish, ayollarni ilmdan voz kechishga majbur qiladigan ijtimoiy stereotiplar tizimini o'zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

– ilm-fanda yuksak natijalarga erishib kelayotgan olim ayollarni elga tanitish, ularni muvaffaqiyat etaloniga aylantirish hamda ishlarini keng targ'ib qilish, O'zbekistonda ilg'or olim ayollar reytingini tuzish;

– qizlarni an'anaviy "erkaklar kasbi" deb hisoblangan kasblar bo'yicha o'qishga kirishiga ko'maklashuvchi maqsadli kvotalar va rag'batlantiruvchi stipendiyalar joriy etish;

– oliy ta'lim muassasalarida xotin-qizlarning farzandlari uchun bolalar xonalarini tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг "Хотин-қизлар ва болалар ҳуқуқлари, эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилиш тизими янада тақомиллаштирилиши муносабати билан ўзбекистон республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида"ги Қонуни ЎРҚ-829. // <https://lex.uz/ru/docs/6430272>
2. Оила ва хотин-қизлар қўмитаси маълумотлари асосида.
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/harassment-ugolovno-pravovoe-ponyatie>.
4. <https://the-steppe.com/razvitie/pochemu-ketkolling-eto-ne-kompliment>.